

xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik banki bu soha uchun moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi. Hindistonda qishloq xo'jaligini moliyalashtirish mexanizmlari tijorat banklari ("Priority Sector Lending"<sup>146</sup> dasturi), regional qishloq banklari, Qishloq xo'jaligi va qishloq rivojlanish milliy banki (NABARD), mikromoliyaviy institutlar va "Kisan Credit Card"<sup>147</sup> kabi maxsus kredit kartalarini o'z ichiga oladi.

Braziliyada Milliy qishloq xo'jaligi kredit tizimi (SNCR), Braziliya milliy rivojlanish banki (BNDES), qishloq xo'jaligi obligatsiyalari (LCA) va CPR (Cédula de Produto Rural)<sup>148</sup> kabi instrumentlar qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda qo'llaniladi. Zamonaviy dunyoda qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda raqamli moliyalashtirish usullari ham keng qo'llanilmoqda. Bularga "Crowdfunding"<sup>149</sup> platformalari, "Peer-to-peer"<sup>150</sup> kreditlash, mobil banking kabi texnologiyalar kiradi.

Bundan tashqari, barqaror moliyalashtirish mexanizmlari ham rivojlanmoqda. "Yashil" obligatsiyalar<sup>151</sup>, iqlim o'zgarishlariga moslashuvchan moliyalashtirish va ta'sir investitsiyalari (Impact Investing) shular jumlasidandir. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish mexanizmlarini doimiy takomillashtirish, innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish va xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirib qo'llash bu sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim shartidir.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda moliya bozori katta rol o'ynaydi. Bank kreditlari, sug'urta tizimlari, xususiy investorlar, davlat subsidiyalari va raqamli moliya xizmatlari orqali fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Ushbu mexanizmlar O'zbekiston kabi qishloq xo'jaligiga tayanadigan mamlakatlar uchun ham samarali bo'lishi mumkin. Shu sababli, xorijiy tajribalardan kelib chiqib, O'zbekistonda qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va moliya bozorining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarur.

## **MOLIYA BOZORINING INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDAGI O'RNI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI**

**Aminov Farrux Farkhadovich**  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*mustaqil tadqiqotchisi*

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida innovatsion loyihalalar har qanday mamlakat iqtisodiy o'shining muhim drayveri hisoblanadi.

<sup>146</sup><https://cleartax.in/glossary/priority-sector-lending>

<sup>147</sup><https://sbi.co.in/web/agri-rural/agriculture-banking/crop-loan/kisan-credit-card>

<sup>148</sup><https://www.sicredi.com.br/site/blog/agronegocio/cedula-produco-rural-beneficios-agronegocio-prosperar/>

<sup>149</sup><https://www.crowdfunding.com/>

<sup>150</sup><https://www.spiceworks.com/tech/networking/articles/what-is-peer-to-peer/>

<sup>151</sup><https://www.icmagroup.org/sustainable-finance/the-principles-guidelines-and-handbooks/green-bond-principles-gbp/>

Yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy izlanishlarni tijoratlashtirish va startap ekotizimini rivojlantirish orqali sanoat tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohasi jadal rivojlanmoqda. Biroq, innovatsion loyihalar ko'pincha katta miqdorda investitsiyalar talab qiladi va yuqori darajadagi moliyaviy risklarga ega bo'lgani sababli, ularni moliyalashtirish muammosi dolzARB masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Moliya bozori innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda asosiy manba sifatida xizmat qilib, vechur kapital, xususiy investitsiyalar, obligatsiyalar va davlat grantlari kabi moliyaviy vositalar orqali loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Fond bozori, bank kreditlari, raqamli moliyalashtirish mexanizmlari va xalqaro moliya institutlari innovatsion faoliyatni barqaror moliyalashtirishga xizmat qiluvchi muhim instrumentlar hisoblanadi. Shu sababli, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham dolzARB mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Innovatsion loyihalar yangi mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlarni joriy etish jarayonidir. Ushbu jarayon, odatda, katta moliyaviy resurslarni talab qiladi va yuqori darajadagi risklarga ega bo'ladi. Bunday sharoitda moliyalashtirish mexanizmlarining samarali ishlashi innovatsion g'oyalarning hayotga tatbiq etilishida muhim omil hisoblanadi.

An'anaviy moliyalashtirish usullari, jumladan tijorat banklari kreditlari, aksariyat hollarda innovatsion loyihalar uchun yetarli darajada samarali emas. Innovatsion biznes yuqori darajadagi noaniqlikka ega bo'lgani uchun banklar bunday loyihalarni moliyalashtirishda ehtiyyotkorlik bilan yondashadi. Shu sababli, rivojlangan iqtisodiyotlarda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun moliya bozori vositalari faol qo'llaniladi.

Moliya bozori innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda muhim o'rIN tutadi, chunki u uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, risklarni taqsimlash va kapital oqimlarini samarali taqsimlash imkonini beradi. Bugungi kunda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun vechur kapitali, xususiy investitsiyalar, IPO va obligatsiyalar chiqarish kabi moliyaviy instrumentlar keng qo'llanilmoqda.

Dunyo tajribasiga qaraganda, rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha maxsus moliyaviy infratuzilmalar yaratilgan. Masalan, AQShda vechur kapital bozori yuqori darajada rivojlangan bo'lib, startap loyihalarining muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Xitoy va Yevropa Ittifoqi esa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan innovatsion fondlar va grant dasturlari orqali moliyalashtirish tizimini rivojlantirgan. Innovatsion loyihalar odatda startap kompaniyalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu loyihalar, ko'pincha, katta hajmdagi kapital talab qilgani sababli, ularni moliyalashtirishda muqobil moliyaviy manbalarga ehtiyoj seziladi. Shu nuqtai nazardan, moliya bozori ushbu loyihalarni moliyalashtirish va ularga barqaror investitsiyalarni jalb qilish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Moliya bozorining innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi o'rni bir

necha jihatdan namoyon bo'ladi. Birinchidan, bu bozor uzoq muddatli sarmoyalarning jalg etilishiga ko'maklashadi. Ikkinchidan, u risklarni taqsimlash orqali investorlarning ishonchini oshiradi. Uchinchidan, moliya bozori orqali jalg qilingan kapital innovatsion loyihalarning keng miqyosda rivojlanishiga imkon yaratadi. Venchur kapital fondlari innovatsion loyihalar uchun asosiy moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu fondlar yuqori riskga ega bo'lgan loyihalarga investitsiya kiritadi va ularning bozorda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi. AQSh va Yevropa davlatlarida venchur kapital bozorlari yaxshi rivojlangan bo'lib, ular ko'plab yirik texnologik kompaniyalarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qilgan.

Xususiy investitsiyalar ham innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Katta moliyaviy resurslarga ega investorlar istiqbolli startap va texnologik loyihalarga sarmoya kiritish orqali innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, fond bozori innovatsion loyihalar uchun muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. IPO (Initial Public Offering – aksiyalarni dastlabki joylashtirish) orqali kompaniyalar kapital jalg qilishi va o'z faoliyatini kengaytirishi mumkin. Moliya bozori rivojlangan davlatlarda IPO va obligatsiyalar chiqarish orqali innovatsion loyihalarni moliyalashtirish keng qo'llaniladi.

Davlatning innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki ham katta ahamiyatga ega. Ko'plab mamlakatlarda innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun davlat grantlari, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalar uchun maxsus dasturlar mavjud bo'lib, ular startaplar va ilmiy-tadqiqot muassasalariga moliyaviy yordam ko'rsatadi. O'zbekiston ham innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lida moliya bozorining imkoniyatlaridan keng foydalanishga intilmoqda. Mamlakatda kapital bozorini rivojlantirish, venchur fondlarini shakllantirish va startap ekotizimini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Moliya bozori innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun turli xil moliyaviy xizmatlarni taqdim etadi. Bu xizmatlar qatoriga risk kapitali, startaplar uchun maxsus kreditlar, grantlar va davlat subsidiyalari kiradi. Shuningdek, fintech platformalar orqali investitsiyalarni jalg qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro moliyaviy institutlarning roli ham katta. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa moliyaviy tashkilotlar ilmiy-texnik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus moliyaviy dasturlarni ishlab chiqmoqda. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirish yo'nalishlari moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiyalash, zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan foydalanish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, institutsional muhitni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishni o'z ichiga oladi. Bu chora-tadbirlar innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimining samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan. Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy manbai

hisoblanadi. Shu sababli, mamlakatimizda ham innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

## **MOLIYA BOZORI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Chinorova Shahodat Mansur qizi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,*

*Mintaqaviy iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi*

*Abduxakimov Abdulaziz Abdug'ani o'g'li*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,*

*Menejment yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakat iqtisodiyotida moliya bozorlarining o'rni va ahamiyati haqida so'z borgan. Shuningdek, moliya bozorining barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri bo'lgan institutsional investorlarning biri hisoblangan tijorat banklari ahamiyati yoritib berilgan, hamda ularning rolini oshirish uchun taklif va xulosalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlari:** qimmatli qog'oz, korporatsiya, depozit, investitsiya, emissiya, tijorat banklari

**Kirish.** Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda moliya bozorlarining o'rni yuqori. Tijorat banklari moliya bozorining eng muhim ishtirokchilaridan biridir. Ular nafaqat kredit va depozit operatsiyalarini amalga oshiradi, balki qimmatli qog'ozlar bozori orqali ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib, tijorat banklarining investitsiya va emissiya faoliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni izchil va xavfsiz amalga oshirish uchun sohaga oid qonunchilik me'yorlarini zamon talablariga mos tarzda ishlab chiqish va ularni muntazam takomillashtirib borish zarur. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari – fuqarolar, davlat organlari va investorlar – qonunchilik talablariga rioya etishini ta'minlaydigan samarali nazorat tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish va tijorat banklarini modernizatsiya qilish ularning investitsiya va emissiya faoliyatini kengaytirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, mazkur yo'nalishda kompleks yondashuv asosida chora – tadbirar ishlab chiqarish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solishda uchun eng muqobil variantlardan biri bu – qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarayotganda ularning ro'yhatdan o'kazilganligi hisoblanadi. Bu jarayonda tartibga soluvchi organ qimmatli qog'ozlarning aniq investitsion loyiha asosida chiqarilganligini, investor mablag'lari oldindan ishlab chiqarilgan biznes – rejaga muvofiq yo'naltirilganini va keljakda foyda keltirishini ta'minlash lozim. Aynan